

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

SHOMIRZAYEV BOBIR URINBAYEVICH

**GAZNI YER OSTIDA SAQLASH STANSIYALARI TEXNOLOGIK
PARAMETRLARINI MONITORINGI VA BOSHQARUVINI
AVTOMATLASHTIRISH**

**05.01.08 –Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni
avtomatlashtirish va boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Shomirzayev Bobir Urinbayevich

Gazni yer ostida saqlash stansiyalari texnologik parametrlarini monitoringi va boshqaruvini avtomatlashtirish..... 3

Шомирзаев Бобир Уринбаевич

Автоматизация мониторинга и управления технологических параметров станции подземного хранения газа..... 21

Shomirzaev Bobir Urinbaevich

Automation of monitoring and control of technological parameters of an underground gas storage station..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 42

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

SHOMIRZAYEV BOBIR URINBAYEVICH

**GAZNI YER OSTIDA SAQLASH STANSIYALARI TEXNOLOGIK
PARAMETRLARINI MONITORINGI VA BOSHQARUVINI
AVTOMATLASHTIRISH**

**05.01.08 –Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni
avtomatlashtirish va boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/T713 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdtu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Siddikov Isomiddin Xakimovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismailov Mirxalil Agzamovich
texnika fanlari doktori, professor

Avazov Yusuf Shodiyevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 7 » 12 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (312 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 207-14-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 21 » 11 kuni tarqatildi.
(2023 yil « 6 » 10 dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.R.Yusupbekov
Ilmiy darajalar beruvchi
* ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor, akademik

U.F.Mamirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., dotsent

X.Z.Igamberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor, akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda soʻnggi paytlarda gaz sanoatida, xususan, gazni yer osti omborlarida saqlash va transportirovka qilish jarayonida mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, texnologik agregatlarning ishlab chiqarish samaradorligi va quvvatini oshirish boʻyicha izlanishlar jadal olib borilmoqda. Ushbu va boshqa sohalarni jadal rivojlantirishda eng dolzarb vazifalardan biri real texnologik obyektlarni boshqarish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish boʻlib, bu boshqarish jarayonlarining sifatini yaxshilash va kam energiya va resurs sarflari bilan samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Xususan yer osti gaz omborlaridan foydalanishda yuzaga keladigan turli noaniqliklarni hisobga olish imkonini beruvchi hamda zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlariga asoslangan holda intellektual boshqarish tizimlarini tashkil etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda maʼlumotlar noaniqligi sharoitida yer osti gaz ombori texnologik jarayonlarini intellektual texnologiyalari usullari asosida boshqarish tizimini yaratishning nazariy muammolarini hal qilishga va ularning turli sohalarda amaliy qoʻllanilishiga katta eʼtibor qaratilmoqda. Turli tasodifiylik va noaniqlik sharoitida texnologik jarayonlarni boshqarishda noqatʼiy mantiqqa asoslangan intellektual texnologiyalardan foydalanish dagʻal va moslashuvchan boshqarishning keng koʻlamli muammolarini hal qilishni taʼminlaydi. Ushbu yoʻnalishda AQSh, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Ukraina kabi dunyoning yetakchi mamlakatlarida maʼlum yutuqlarga erishildi.

Hozirgi vaqtda Oʻzbekiston Respublikasida texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish sohasiga, shu jumladan gazni yer osti omborlarida saqlash va transportirovka qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarishda energiya va resurslarni tejashni taʼminlaydigan ilgʻor boshqarish tizimlarini yaratishga katta eʼtibor berilmoqda. 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Sanoat tarmoqlarida yoʻqotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish boʻyicha ..., zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalar, asbob-uskunalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqarish va energiya samaradorlikni oshirish boʻyicha loyihalarni moliyalashtirish»¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun gazni transportirovka qilishning texnologik jarayonlarini yuqori samarali intellektual boshqarish tizimlarini sintez qilish va amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 09-iyuldagi PQ-4388-sonli «Iqtisodiyot va aholini energiya manbalari bilan barqaror taʼminlash, moliyaviy sogʻlomlashtirish va neft-gaz sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida», 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni

tarmoqlarining yoqilg'i energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlari va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish masalalarini ishlab chiqish bilan bog'liq ilmiy-texnik nashrlar tahlili ushbu sohada ma'lum darajada nazariy va amaliy natijalarga erishilganligidan dalolat beradi. Bu borada jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari, jumladan, "Honeywell", SIMSCI-Simulation va University of California, Massachusetts Technology instituti (AQSh), University of Chemical Technology in Prague (Chexiya), "Siemens" va University of Münster (Germaniya), Osaka University va Tokyo Institute of Technology (Yaponiya), Korea Advanced Institute of Science and Technology (Janubiy Koreya), Imperial College London (Buyuk Britaniya), "Alstom" (Fransiya), Rossiya kimyo-texnologiya Universiteti (Rossiya), Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Murakkab texnologik jarayonlarni nazorat qilish va boshqarishning intellektuallashtirish masalalarini ishlab chiqishga xorijiy olimlar, jumladan R.A.Aliyev², V.V.Kafarov³, V.P.Meshalkin⁴ va boshqalar hamda intellektual texnologiyalar asosida bu jarayonlarni boshqarish tizimlarini yaratish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy muammolarni yechishga mamlakatimiz olimlaridan T.F.Bekmuratov⁵, N.R.Yusupbekov⁶, Sh.M.Gulyamov⁷, X.Z.Igamberdiyev⁸, I.X.Siddikov⁹ va boshqalar o'zlarining katta xissalarini qo'shganlar.

Gaz va gaz kondensatini saqlash, transportirovka qilish va tayyorlash texnologiyalarining doimiy murakkablashuvi zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalar yutuqlaridan foydalanib noaniqlik sharoitida texnologik jarayonlarni boshqarishning yuqori samarali usullari va algoritmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu jihatdan, texnologik yechimlarni sifat jihatidan yangi

² Алиев Р.А., Алиев Р.Р. Теория интеллектуальных систем. -Баку: Чашыюглы, 2001. -720 с.

³ Кафаров В.В., Глебов М.Б. Математическое моделирование основных процессов химических производств. – М.: Высш. шк., 1991. – 400 с.

⁴ Мешалкин В.П. Анализ и синтез химико-технологических систем. - М.: Химия, 1991. -432 с.

⁵ Бекмуратов Т.Ф. Систематизация задач интеллектуальных систем поддержки принятия решений // Проблемы информатики и энергетики. Ташкент. №4. – 2003.– с.24-35.

⁶ Юсупбеков Н.Р., Алиев Р.А., Алиев Р.Р., Юсупбеков Н.А. Интеллектуальные системы управления и принятия решений. -Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2014. – С.490.

⁷ Gulyamov Sh.M. Intelligent control technology, the reliability of the measuring information// Chemical Technology, Control and Management. № 3. – 2018.– pp.128-131

⁸ Igamberdiyev X.Z. Regularized algorithms of adaptive assessment of state of control objects with parametric perturbation account//Chemical Technology, Control and Management. Volume – 2018. Issue 2. – pp.47-52.

⁹Сиддиков И.Х. Моделирование и анализ качества нечеткой системы управления электрприводом // Химическая технология. Контроль и управление. Ташкент, – №3. – 2014, – С.39-42.

darajada tahlil qilish, gaz va gaz kondensatini ishlab chiqarish, saqlash va tashish qurilmalarining asosiy ishlash ko'rsatkichlarini bashorat qilish imkonini beradigan gazni tayyorlash va gaz kondensatini transportirovka qilish bo'yicha kompyuterli texnologik boshqarish tizimini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarining OT-F4-78 – «Dinamik obyektlarning adaptiv boshqarish tizimlarini identifikatsion yondashuv asosida sintezlashning nazariy asoslari va muntazam usullarini ishlab chiqish» (2017-2020) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gaz ombori texnologik jarayonlarini boshqarish tizimini intellektual texnologiya usullari asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

tabiiy gazni saqlash va transportirovka qilishning texnologik jarayonlarini boshqarish muammosini tizimli tahlil qilish;

gazni saqlash va transportirovka qilishning boshqarish jarayonini noqat'iy modellarini ishlab chiqish;

gazni transportirovka qilish texnologik jarayonlarini noqat'iy boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish;

gazni transportirovka qilish jarayonining noqat'iy avtomatik rostdash tizimini sintezlash.

Tadqiqot obyekti sifatida tabiiy gazni yer ostida saqlash jarayonini boshqarish tizimlari olingan.

Tadqiqotning predmeti dinamik obyektlarni boshqarish jarayonlarini intellektuallashtirish usullari, modellari va algoritmlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun zamonaviy avtomatik boshqarish nazariyasi, imitatsion modellashtirish nazariyasi, tizimli tahlil qilish usullari, intellektual boshqarish nazariyasi, ehtimollik nazariyasi usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli tasodifiylik va noaniqlik sharoitida jarayonning xususiyatlarini to'liqroq ochib berish va uning asosida boshqarish tizimini yaratish imkonini beruvchi yer osti gaz omborlari texnologik jarayonlarining noqat'iy mantiq modeli ishlab chiqilgan;

gazni transportirovka qilish jarayoniga ta'sir etuvchi faktorlarning qisman tasodifiyligini hamda obyektning dinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqarish tizimini yuqori sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash imkonini beradigan noqat'iy rostlagichni adaptiv sozlash algoritmi ishlab chiqilgan;

yer osti gaz omborlarida saqlanayotgan gazni transportirovka qilish jarayoni samaradorligi va yuqori aniqligini ta'minlash imkonini beruvchi noqat'iy boshqarish tizimini sintezlash algoritmi ishlab chiqilgan;

gaz quvuri bosimi va sarfini keng diapazonda o'zgarishi va noaniqligi sharoitida texnologik talablarni hisobga olgan holda boshqarish jarayonini stabillash

imkonini beruvchi noqat'iy PID-rostlagichli boshqarish tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagicha:

gazni transportirovka qilish texnologik parametrlarini mikrokontrollerli boshqarish tizimi ishlab chiqilgan;

er osti gaz omboridagi gazni transportirovka qilish texnologik jarayonini noqat'iy boshqarish va avtomatlashtirishning funksional sxemasi ishlab chiqilgan;

gazni transportirovka qilish texnologik rejimlarini barqarorlash hamda ularning ishlash samaradorligini oshirish imkonini beradigan noqat'iy boshqarish tizimini tadqiq qilishning imitatsion modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi noqat'iy to'plamlar va mantiq nazariyasi asosida dinamik obyektlarni intellektual nazorat qilishning nazariy jihatdan mavjud tushunchalarini qo'llash, shuningdek, matematik vositalar, ilmiy eksperimental tadqiqotlar va mavjud tizimlarni sinash natijalari va ularning o'zaro izchilligidan to'g'ri foydalanish bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqarish holatlari noaniqlik va tasodifiylik sharoitida intellektual texnologiyalar asosida dinamik obyektlar parametrlarini boshqarish tizimlarining barqaror va konstruktiv modellari va algoritmlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu uzluksiz-diskret xarakterdagi texnologik obyektlarni boshqarish jarayonlarini intellektuallashtirish muammolarini hal qilishi bilan izohlanadi.

Ish natijalarining amaliy ahamiyati kirish ta'sirining noaniqligi, boshqarish obyekti holati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi sharoitida dinamik obyektlarni nazorat qilish va boshqarish masalalarini intellektuallashtirishning matematik va algoritmik ta'minoti ishlab chiqilganligi va ular asosida boshqarish funksional strukturalarini qurishda keng qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gazni saqlash va transportirovka qilish jarayonini ishlab chiqilgan modellari va algoritmlari asosida yaratilgan adaptiv-noqat'iy boshqarish tizimini amaliyotga qo'llash natijasida:

gazni transportirovka qilish tizimini takomillashtirish imkonini beruvchi gazni transportirovka qilish jarayonining noqat'iy boshqarish tizimi Xo'jaobod gazni yer ostida saqlash inshootida joriy qilindi ("O'ztransgaz" AK ma'lumotnomasi №01-29/5435-son 2022 yil 14 noyabr). Natijada gaz bosimi va sarfini rostlash vaqti qisqardi;

mikrokontroller asosida gaz quvuridagi bosimni barqarorlashtirishni noqat'iy rostlash tizimi Xo'jaobod gazni yer ostida saqlash inshootida tatbiq etildi ("O'ztransgaz" AK ning 2022 yil 14 noyabrdagi №01-29/5435-sonli ma'lumotnomasi). Natijada gaz quvuridagi bosimni barqarorlashtirishga va qayta rostlashni 15% ga qisqartirishga erishildi;

yer osti gaz omborida gazni transportirovka qilishning texnologik parametrlarini avtomatlashtirilgan monitoring va boshqarish tizimi ("O'ztransgaz" AK ning 2022 yil 14 noyabrdagi №01-29/5435-sonli ma'lumotnomasi) Xo'jaobod gazni yer ostida saqlash inshootida tatbiq etildi. Natijada, gazni transportirovka qilishni boshqarish jarayonining parametrlarini operativ nazorat qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta konferensiyalarda, shu jumladan 5 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumunlarida e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ishlar chop etildi, shulardan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attetatsiya komissiyasining tavsiya etgan jurnallarida, jumladan, 2 tasi xorijiy maqola, shuningdek EHM lar uchun dasturiy mahsulotlarga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan ro'yxatdan o'tgan 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **Murakkab dinamik obyektlarni tizimli tahlili va boshqarish masalalari** nomli birinchi bobida turli xil noaniqliklar ostida ishlovchi dinamik obyektlar uchun intellektual boshqaruv tizimlarini qurish nazariyasi va amaliyotining hozirgi holati tahlil qilingan. Dinamik obyektlarni boshqarish jarayonida noaniqliklarning yuzaga kelishining asosiy sabablari aniqlangan.

Bugungi kunda boshqaruv obyektlari murakkab, ko'p o'lchamli nochiziqli boshqaruv tizimlari hisoblanadi. Ular maxsus foydalanish tavsiflari va tashqi muhit ta'sirini hisobga olgan holda bashorat qilish qobiliyati bilan bajariladigan amallar ketma-ketligini rejalashtirish uchun talab qilinadigan ishlashni va keng funksiyalarni ta'minlashni shakllantirish, shuningdek, uning hozirgi holatlarini faol ravishda moslashtirish maxsus, nostandart usullarni talab qiladi. Ana shu talablardan kelib chiqqan holda intellektual boshqarishning instrumental vosita va usullarini ishlab chiqish zarur.

Jadal rivojlanayotgan zamonaviy axborot jamiyati ulkan ma'lumotlar oqimlarini qayta ishlash va tahlil qilish asosida real dinamik tizimlarni boshqarish oldida dolzarb vazifa turibdi. Tizimdagi mavjud omillarning noaniqligi va dinamik xarakteri dinamik tizimlar xatti-harakatini bashoratlashni sezilarli darajada murakkablashtiradi, shunga ko'ra boshqarish muammosini hal qilish murakkablashadi.

Intellektual avtomatik boshqarish tizimlarini yaratish uchun fan va texnikaning turli sohalarida qo'llaniladigan ko'plab modellar va algoritmlar mavjud. Ulardan neyron tarmoqlari, noqat'iy tizimlar, ekspert boshqarish tizimlari, genetik algoritmlar, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, qaror daraxtlari eng keng

tarqalganidir.

Tizimli tahlil asosida, noaniq omillar mavjudligida dinamik obyektlarni boshqarish modellari va algoritmlarini yaratish boshqaruv nazariyasining klassik usullari uchun juda murakkab va g'ayrioddiy ekanligi aniqlandi, ularning yechimi zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini rivojlantirishni hisobga olgan holda yangi usullarni ishlab chiqishni va ma'lum usullarni o'zgartirishni talab qiladi. Buning sababi shundaki, adaptiv va robastli boshqaruv tizimlari sinfidagi bunday tizimlarni o'rganishning an'anaviy usullari boshqaruv obyekti tuzilishi va ta'sirlarni baholash usuli tufayli qiyinchiliklarga duch keladi.

Formal taqdimot usullarini tahlil qilish, modellashtirish va tizimning ishlash rejimlariga ta'sir etuvchi noaniqlik sharoitida ishlaydigan boshqaruv tizimlarining dinamikasini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, dinamik obyektlarni boshqarish jarayonlarni intellektuallashtirish uchun bazaviy asos bo'lgan noqat'iy mantiq nazariyasi va avtomatik boshqarish nazariyasini o'z ichiga olgan gibril usullarini qo'llash eng monand vazifalar hisoblanadi.

Birinchi bobda dissertatsiya tadqiqotlarining uslubiy bosqichlari va yo'nalishlari tuzilishi alohida o'rin tutadi. Bu yerda intellektual boshqarishni o'z ichiga olgan ma'lumotlar va bilimlar bazalarini birlashtirishga asoslangan gibril axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan murakkab dinamik obyektlarni boshqarish jarayonlarini intellektuallashtirish nuqtai nazaridan tadqiqot konsepsiyalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **Gazni transportirovka qilish jarayonini noqat'iy mantiq modelini qurishning matematik asosi** nomli ikkinchi bobida nazorat tizimlarini ishlab chiqishda va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hal qilinadigan eng muhim va vaqt talab qiladigan vazifalardan biri bo'lgan dinamik jarayonlarning modellari ko'rib chiqilgan.

Jarayonni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishda axborotni qayta ishlashning yuqori samarali usullarini yaratish va boshqarish ta'sirlarini ishlab chiqish, tizimning ishlashi uchun murakkab sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlarini, masalan, noaniqlik va tashqi muhit xususiyatlarining o'zgarishi, g'ayritabiiy vaziyatlarning paydo bo'lishi, axborot manbalari, aloqa kanallarining ishlamay qolishi, shuningdek, boshqaruvchi ta'sirlarni shakllantiruvchi qurilmalarni, hamda g'alayonlar va halaqitlarning ta'sirini aks ettiruvchi matematik modellarni ishlab chiqish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tabiiy gazni magistral transportirovka qilish jarayonlarini matematik modellashtirish boshlang'ich ma'lumotlarda noaniqliklar mavjudligi tufayli ancha murakkablashadi.

Dastlabki ma'lumotlarning ishonchsizligi matematik modellarda ikki xil - ehtimollik modellari, shuningdek noqat'iy to'plamlar nazariyasi usullari yordamida hisobga olinishi mumkin.

Gazni transportirovka qilish tizimlarining ayrim parametrlarining noaniqligi, ehtimollik jihatidan ancha noaniq bo'lib, shunga ko'ra noqat'iy sonlar deb ham ataladigan noqat'iy to'plamlar shaklida ta'riflanishi mumkin. Quvurlarning gidravlik qarshiligining haqiqiy koeffitsiyentlari, odatda, loyiha qiymatlariga yaqin,

ammo ikkalasi ham ichki devorlarga ta'sirlar va gidravlik qarshiligini hisoblashdagi xato tufayli ulardan farq qiladi.

Dissertatsiya ishida bitta tranzit kirish va chiqishga ega bo'lgan tranzit gazni transportirovka qilish tizimi ko'rib chiqilgan (asosan quyida keltirilgan argumentlar ixtiyoriy kirish va chiqishlar soni uchun ham amal qiladi). Tizimning kirish va chiqish joyida berilgan bosim qiymatini qabul qilib, tizimga kirish joyidagi gaz sarfini ma'lum tegishlilik funksiyasiga ega noqat'iy son sifatida ifodalaymiz. Tizimning quvurlari va quvvat uskunalarning holati ishonchli ma'lum emas, chiziqli uchastkalarda gidravlik samaradorlik va kompressor stansiyalaridagi gaz haydash agregatlarining maksimal quvvati tegishlilik funksiyalaridan foydalangan holda aniq berilmagan.

Vazifa tizimning chiqish joyidagi gaz sarfining tegishlilik funksiyasini hisoblashdan iborat bo'lib, bu gazni transportirovka qilish tizimining maksimal o'tkazuvchanligini noqat'iy son sifatida hisoblashga ekvivalent bo'ladi.

Noqat'iy to'plamlarning $\mu_{A \cap B}(x) = \min(\mu_A(x), \mu_B(x))$ kesishish qoidasiga muvofiq, biz sarfning TF uchun quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$\mu_{\lambda}(x) = \min\{\mu_q(x), \mu_{\lambda}(g^{-1}(x))\},$$

bu yerda μ_{λ} – gidravlik qarshilik koeffitsiyentining tegishlilik funksiyasi. Agar λ ning, Reynolds soniga va shunga mos ravishda sarfga bog'liqligini e'tiborsiz qoldirsak, unda o'tkazuvchanlik quvvatning TFni ketma-ket yaqinlashish usuli bilan iteratsion ravishda hisoblash mumkin.

Optimal aniq boshqarish ta'sirlari u_0^0, \dots, u_{N-1}^0 ni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\mu_G(u_0^0, \dots, u_{N-1}^0) = \max\left\{\mu_{G_0}(u_0) \wedge \dots \wedge \mu_{G_{N-1}}(u_{N-1}) \wedge \mu_{G_N}(F(x_{N-1}, u_{N-1}))\right\} = \quad (1)$$

$$= \max\left\{\mu_{G_0}(u_0) \wedge \dots \wedge \mu_{G_{N-1}}(x_{N-1})\right\}, \quad (2)$$

$$\mu_{G_{N-1}}(x_{N-1}) = \max_{u_{N-1}}\left\{\mu_{G_{N-1}}(u_{N-1}) \wedge \mu_{G_N}(F(x_{N-1}, u_{N-1}))\right\}.$$

bu yerda $\mu_{G_{N-1}}(x_{N-1})$ funksiyasini N moment uchun induksiyalangan G_N yakuniy maqsad tomonidan qo'zg'atilgan $N-1$ vaqtidagi noqat'iy maqsadga tegishlilik funksiyasi deb hisoblash mumkin. Masalaning yechimini $N-j$ vaqt oralig'idagi moment uchun quyidagi rekurrent protsedura yordamida dinamik dasturlash usuli yordamida topish mumkin:

$$\mu_{G_{N-j}}(x_{N-j}) = \max_{u_{N-j}}\left\{\mu_{G_{N-j}}(u_{N-j}) \wedge \mu_{G_{N-j+1}}(x_{N-j+1})\right\},$$

bu yerda $x_{N-j+1} = F(x_{N-j}, u_{N-j}), j = \overline{1, N}$.

Shunday qilib, $\mu(x_k)$ ning noaniq holatini, $\mu_{C_k}(u_k)$ noqat'iy cheklovini va $\mu_{G_k}(u_k)$ ning induksiyalangan noqat'iy maqsadini bilib, k vaqt momentida (1) va (2) orqali u_k^0 effektiv aniq boshqarishni topish mumkin.

Intellektual boshqarish tizimini ishlab chiqishning eng muhim vazifasi nafaqat tegishli ma'lumotlarni to'plash, balki qaror qabul qilish jarayonida uni samarali

qayta ishlashga imkon beradigan bilimlarni namoyish etishning samarali modellarini tanlash yoki yaratishdir. Ushbu vazifa muammo sohasi haqida va ushbu sohada qarorlar qabul qilish usullari to'g'risida kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tegishli bilimlar bazasini yaratish uchun noaniq sharoitlarda ishlaydigan boshqarish tizimining parametrlarini modellashtirish, bashorat qilish va moslashtirish uchun yuqori samarali algoritmlarni ishlab chiqish bilan bevosita bog'liqdir.

Kompozitsion xulosa qilish qoidasiga asoslangan boshqarish jarayoni modeli murakkab tizimning boshqarish qarorlari bilan barcha mumkin bo'lgan holatlarining aloqasini tavsiflaydi. Rasmiy ravishda model uchlik (X, R, Y) shaklida berilgan, bu yerda $X = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$, $Y = \{y_1, y_2, \dots, y_m\}$ – tizimning A_i kirish va B_i chiqishlari berilgan bazaviy to'plamlari; R – “kirish-chiqish” noqat'iy mosliklari. Murakkab tizimning ishlashi paytida boshqarish jarayonining xususiyatlarini R mosliklari quyidagi mulohazalar qatori shaklida tavsiflaydi:

$$IF A_1 THEN B_1, ELSE IF A_2 THEN B_2, \dots, ELSE IF A_N THEN B_N,$$

bu yerda A_1, A_2, \dots, A_N – bu X bazaviy to'plamda aniqlangan noqat'iy quyi to'plamlar va V_1, V_2, \dots, B_N – bu Y bazaviy to'plamdan noqat'iy quyi to'plamlar.

Ushbu noqat'iy quyi to'plamlarning barchasi $\mu_{A_i}(x)$ va $\mu_{B_i}(y)$ a'zolik funksiyalari orqali belgilanadi.

Agar bizda A noqat'iy hodisasi bor deb taxmin qilsak, ya'ni noqat'iy quyi to'plam bilan ifodalangan kirish holati va umumiy R munosabati ma'lum bo'lsa, u holda natijaviy harakat kompozitsion xulosa qilish $V' = A \circ R$ qoidasiga muvofiq olinadi. V' uchun tegishlilik funksiyasining qiymati maksimal operatsiya yordamida hisoblanadi:

$$\begin{aligned} \mu_B(y) &= \bigvee_{x \in X} (\mu_A(x) \wedge \mu_R(x, y)) = \bigvee_{x \in X} (\mu_A(x) \wedge (\mu_A(x) \wedge \mu_B(x, y)) \wedge \mu_B(x, y)) = \\ &= \left(\bigvee_{x \in X} (\mu_A(x) \wedge \mu_A(x)) \right) \wedge \mu_B(y) = \bigvee_{x \in X} \mu_{A \cap A}(x) \wedge \mu_B(y) = \\ &= \alpha \wedge \mu_X(y) = \mu_{\alpha Y \cap B}(y). \end{aligned} \quad (3)$$

(3) tenglama ko'pincha noqat'iy xulosalash tizimlarida qo'llaniladi, chunki ma'lum tegishlilik funksiyalari bo'lgan ushbu tenglamalar asosida yakuniy natijalar juda sodda tarzda hisoblab chiqiladi va noqat'iy xulosalash mexanizmining grafik talqini taqdim etiladi.

Texnologik jarayonning bajarilishini yuqori sifat bilan ta'minlash strategiyasini quyidagi maqsadli funksiya bilan ifodalash mumkin:

$$\sum_{i=1}^n \delta_i(t) = \sum_{i=1}^n (G_i(t) - Y_i(t)),$$

bu yerda $\delta_i(t)$ – i - parametr uchun nomuvofiqlik funksiyasining joriy qiymati;

$G_i(t)$, $Y_i(t)$ – mos ravishda i - kirish parametri funksiyasi va i - chiqish parametri funksiyasining joriy qiymatlari.

Texnologik jarayonning optimal bajarilishida keltirilgan maqsad funksiyasi nolga intiladi. Maqsad funksiyasi har bir parametr, uning hosilalari haqida ko'p o'lchamli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va shu bilan birga texnologik jarayon bajarilishiga ta'sir qiluvchi parametrlarning har xil fizik xarakteri bilan

aniqlanadigan taqsimlangan xarakterga ega. i - chiqish parametri uchun quyidagi ifodani yozish mumkin:

$$Y_i(P) = G_i(P) \frac{\sum_{m=1}^j K_m W_i(P)}{C_i W_i(P) \sum_{m=1}^j K_m + C_i} \sum_{n=1}^L K_n,$$

bu yerda $W_i(P)$ – teskari aloqa hisobga olinmagan i - parametr uchun texnologik tizimning uzatish funksiyasi; K_m – teskari aloqali texnologik tizim zvenolarining xatolik koeffitsiyenti; K_n – teskari aloqa hisobga olinmagan texnologik tizim zvenolarining xatolik koeffitsiyenti; C_i – bu teskari aloqa ma'lumotlarini o'lchash o'zgartirishining xatoligi.

Dissertatsiyaning **Yer osti gaz omborlaridan gazni qaytarib olish jarayonini noqat'iy boshqarish tizimini sintezlash algoritmlari** nomli uchinchi bobida axborotning noaniqligi sharoitida ishlaydigan iyerarxik ravishda uyushgan dinamik obyektlar uchun intellektual boshqaruv tizimini qurish tamoyillari bayon qilingan.

Hozirgi vaqtda ko'plab gazni transport qilish tizimi obyektlarining samaradorligi loyihalash ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu sof texnologik sabablarga – quvurlar holatining yomonlashishi, uskunalarning eskirishi, konlarda gaz qazib olishning pasayishi, shuningdek konyunktura-iqtisodiy – energiya resurslariga bo'lgan talabning sezilarli o'zgarishi, yangi eksport gaz quvurlarining foydalanishga topshirilishi va eskilarining yuklmasi pasayishi va boshqalarga ham bog'liq. Yuklamaning pasayishi bilan gazotransport tizimi (GTT) ish rejimlarini optimallashtirish masalasi paydo bo'ladi. Optimal rejimni izlash, odatda, har doim ham uskunalarning lokal optimal rejimlari bilan ta'minlanganligi bilan butun tizim uchun optimal rejim bilan ta'minlanmasligi sababli noan'anaviy vazifa hisoblanadi.

GTT ni ishlash rejimlarining optimal mezonni tanlash alohida muhim masala hisoblanadi. Eng aniq narsa, energiya sarfini minimallashtirish mezonidir yoki barcha gaz haydash agregatlari tizimlari gaz turbinasi uzatmasi bilan jihozlangan deb hisoblansa, qo'shimcha ehtiyojlar uchun yonilg'i gazi sarfi yoki gaz sarfini minimallashtirishdir.

Optimallashtirishning boshqa mezonlari ham bo'lishi mumkin, masalan, tovar - transport ishlarining umumiy hajmini minimallashtirish mezonlari - tashiladigan gaz hajmining transportirovkani har bir yo'nalishi bo'yicha uzatilgan masofaga ko'paytmasi, bu odatda energiya xarajatlarini minimallashtirishga ekvivalent. Sanoat standartlarida ekvivalent tovarni tashish ishi tushunchasi kiritilgan - obyektning har bir nuqtasida aniqlangan gaz sarfi va bosim kvadratiga mutanosib bo'lgan qiymat.

Shuningdek, shakllantirilishi qiyin bo'lgan ba'zi optimallik mezonlari ham mavjud bo'lishi mumkin. Bularga quyidagilar kirishi mumkin: barqaror rejimlarda ishlash istagi, quvurlarda to'plangan gaz miqdorini maksimal darajada oshirishga intilish, har qanday obyektning uzoq vaqt ishlamay qolishiga yo'l qo'yimaslik istagi: kompressor stansiyasi yoki kompressor sexi va boshqalar.

Biz barcha kompressor stansiyalaridagi $p_{vs1}, \dots, p_{vsN}, p_{nag1}, \dots, p_{nagN}$ ichiga tortish

va kuchaytirish bosimlarini optimallashtirish muammosining o'zgaruvchan parametrlari sifatida ishlatamiz. Shunday qilib, ularning umumiy ichki quvvati va shunga mos ravishda o'z ehtiyojlari uchun gaz sarfi minimal bo'lishi uchun kompressor stansiyaning ishlash rejimlarini tanlash vazifasi funksionalni minimallashtirish masalasi sifatida formallashtirilishi mumkin:

$$F(p_{s1}, \dots, p_{sN}, p_{d1}, \dots, p_{dN}) = N_1(p_{s1}, p_{d1}) + \dots + N_i(p_{sN}, p_{dN}) \rightarrow \min.$$

Yer osti gaz ombori obyekt sifatida vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan parametrlarga ega, ya'ni u nostatsionar boshqarishlidir. Bunday obyektlarni boshqarish muammosini hal qilish uchun nostatsionar boshqarish tizimlarini qurish va shu sababli dinamik rostlagichlarni loyihalashtirish talab etiladi. Amalda hozirgi kunda proporsional-integral-differensial (PID)-rostlagichlar boshqarish avtomatik tizimlarining korrektlovchi moslamalari sifatida keng qo'llanilmoqda.

Gaz dinamikasi nazariyasi bo'yicha uning nostatsionar harakati paytidagi holatini hisoblash uchun quyidagi noxiziqli differensial tenglamalar tizimidan foydalaniladi:

$$\begin{cases} \frac{\partial p}{\partial t} \frac{\partial Q}{\partial x} = 0, \\ \frac{\partial p^2}{\partial x} + K * Q^2 = 0, \end{cases}$$


bu yerda: P – gaz bosimi MPa; Q – gaz sarfi m^3 /cek; K – quvurning fizik parametrlari va atrof-muhit holatining koeffitsiyenti.

Gaz sarfi (oqim) Q quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$Q = \frac{dv}{dt} = \frac{dp}{dt} \cdot \frac{V}{TR}.$$

“Zadvijka–motor” tizimidagi o'tish jarayonlar o'lchash tugunidagi o'tish jarayonlariga qaraganda ancha tezroq sodir bo'ladi, shuning uchun ularni e'tiborsiz qoldirish mumkin. Katta diametrli quvurlardan foydalanilganligi sababli gazning yopishqoqligi ham e'tiborga olinmasligi mumkin. Zadvijka faqat ikkita diskret boshqarish buyrug'i bilan boshqariladi: “Zadvijkani oching” va “Zadvijkani yoping”.

Sarfni avtomatik boshqarishning strukturaviy sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Gaz sarfini avtomatik boshqarishning strukturaviy sxemasi.
1 - boshqarish obyekti; 2 - datchik; 3 - rostlagich; 4 - ijro etuvchi qurilma.

Keyingi hisob-kitoblarning qulayligi uchun biz gaz parametrlarining nisbatlarini aniqlaydigan K parametrni kiritib, quyidagi tenglamalarni olamiz:

$$K \equiv \frac{TR}{V},$$

$$p(t) = K \cdot \int_0^t Q dt.$$

Bunday holda, quvur liniyasi tarmog'ining modeli quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$\begin{cases} Q^* = Q_o - Q_s \\ p(t) = K \cdot \int_0^t (Q^* - Q_f) dt; \\ Q_f = k\varphi; \\ \varphi = k_{dv} \int_0^t \omega dt, \end{cases} \quad (4)$$

bu yerda Q^* – o'lchash uzeldagi gazning oqimi va sarfi o'rtasidagi farq; $p(t)$ – tizimdagi bosimning joriy qiymati, φ – zaslonkaning burchak holati, k – gaz sarfining zaslonkaning burchak holatiga bog'liqlik koeffitsiyenti, k_{dv} – uzatmaning reduksiyalash koeffitsiyenti, ω – zadvijskaning aylanish burchak tezligi, $\omega = const$.

Tizim rostlashdan keyin barqaror holatda bo'lishi uchun zaslonkaning (φ_k) oxirgi holatini hisoblash kerak:

$$Q^* = k\varphi_k. \quad (5)$$

Endigi vazifa motor aylanishini to'xtatishi kerak bo'lgan zaslonka o'rnini (φ_k) hisoblash zarur.

(5) tenglamani tizimning (4) birinchi tenglamasiga almashtirib, so'ng uni integrallab, quyidagicha ifodani olamiz:

$$p_b = p_0 + K \cdot \left[(Q^* - \varphi_0)t_2 - \frac{\omega t_1^2}{2} + (Q^* - \varphi_n)t_2 + \frac{\omega t_2^2}{2} \right], \quad (6)$$

bu yerda p_b – tizimdagi berilgan bosim, p_0 – berilgan koridordan chiqish paytidagi bosim, K – gaz parametrlarining nisbati, Q^* – gazning oqimi va sarfi orasidagi farq, φ_0 – koridordan chiqish paytidagi zaslonkaning pozitsiyasi, φ_n – yo'nalish o'zgartirilganda zaslonkaning holati, t_1 – zaslonkani ochish vaqti, t_2 – zaslonkani yopish vaqti, ω – zadvijska uzatmasining aylanish tezligi.

(5), (6) tenglamalarni birgalikda yechib:


$$\begin{cases} t_1 = \frac{\varphi_x - \varphi_0}{\omega} \\ t_2 = \frac{\varphi_k - \varphi_n}{\omega} \end{cases} \quad (7)$$

φ_n qiymatini aniqlash mumkin.

Tenglamalar (5), (6), (7) tizimi gaz sarfining o'zgarishini g'alayonli ta'sir sifatida aniqlaydi.


Magistral gaz quvuridagi gazning texnologik parametrlarini boshqarish jarayoni gaz o'lchash uzeligga o'rnatilgan klapan-rostlagich tomonidan amalga oshiriladi, u gaz sarfini o'lchash va gaz quvuridagi bosimni boshqarish uchun xizmat

qiladi, uning sxemasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Klapani boshqarishning strukturaviy sxemasi.

Klapan-rostlagichining funksiyasini bajaradigan noqat'iy PID – rostlagichni amalga oshiradigan tizim MATLAB/FUZZY LOGIC TOOLBOX ilovasi yordamida ishlab chiqilgan va quyidagi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Bosimni noqat'iy PID – rostlagich yordamida rostlash tizimining imitatsion modeli.

Truboprovod liniyasidagi gaz bosimining og'ish kattaligi bo'yicha fazzifikatsiya qilish uchun uch termli tegishlilik funksiyalarining uchburchak shaklini olamiz.

Noqat'iy mantiqning lingvistik o'zgaruvchilaridagi klapan holatini boshqarish beshta term bilan ifodalanishi mumkin. Agar bosim belgilangan nuqtadan kam bo'lsa va uning qiymati o'zgarmasa, u holda klapan qisman ochiladi. Noqat'iy o'zgaruvchilardan foydalanib, biz ushbu qoidani quyidagicha yozamiz:

agar $X = M$ va $I = K$ va $H = M$ bo'lsa, u holda $Kp = Kt$, $Ki = Kt$, $Kp = K$.

Qolgan mumkin bo'lgan vaziyatlar va tegishli noqat'iy boshqarishlar xuddi shu asosda yoziladi.

Dissertatsiyaning **Ishlab chiqilgan modellar va algoritmlarning magistral quvurdagi gaz parametrlarini boshqarishga tatbiqi** nomli to'rtinchi bobida noaniqlik sharoitida turli xil texnologik obyektlarni boshqarish muammolarida boshqaruv jarayonlarini intellektuallashtirish uchun ishlab chiqilgan modellar va algoritmlarni qo'llash natijalari keltirilgan. Misol tariqasida, gazni yer osti omborida yig'ish va qaytarib olishning texnologik jarayonlarini boshqarish uchun intellektual adaptiv noqat'iy tizimni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan.

Gazni quyish jarayonining asosiy texnologik parametrlari quyidagilardir: omborga quyilishi mumkin bo'lgan gazning maksimal hajmi, omborxonadagi, quyish quduqlari tubi va kuchaytirish quduqlari boshlarida bosimning o'zgarishi, gaz quyish uchun zarur bo'lgan kompressorlar soni va texnik xarakteristikalari va boshqalar.

Omborxonadan gazni tortib olish jarayonining qo'shimcha ravishda aniqlanishi kerak bo'lgan asosiy texnologik parametrlari quyidagilardir: plast va quduqdagi gaz bosimi, kerakli miqdordagi foydalaniladigan quduqlar va ularning debiti.


Atmosfera bosimi va plast haroratiga keltirilgan τ vaqtdagi yer ostiga haydalgan gaz hajmini quyidagi tenglama bilan aniqlash mumkin:

$$Q_z(\tau) = \frac{\Omega \cdot z_{atm}}{P_{atm}} \cdot \left[\frac{\bar{P}(\tau)}{z(\bar{P})} - \frac{P_n}{z_n} \right],$$

bu yerda: $z_n - P_n$ da gazning siqilish koeffitsiyenti; $z(\bar{P}) - \bar{P}$ gazni siqish koeffitsiyenti; σ - gaz bilan to'yinganlik koeffitsiyenti; $\Omega = \sigma \cdot \Omega_0$ - g'ovak bo'shliqning gaz bilan to'yingan hajmi, m^3 ; Ω_0 - gaz ombori bo'shliqlarining umumiy hajmi, m^3 ; σ - gaz bilan to'yinganlik koeffitsiyenti; P_{atm} - normal gaz bosimi, 1 at. (texnik atmosfera) = 0,1 MPa ga teng; $\bar{P}(\tau)$ - τ vaqt momenti bo'yicha qatlam bo'shliqlarining gaz bilan to'yingan hajmiga o'rtacha bosimi, MPa; P_n - ombordagi dastlabki gaz bosimi (gaz quyishdan oldin), MPa.

G'ovakli bo'shliq hajmiga ega bo'lgan foydalanib bo'lingan neft qatlamiga quyilishi mumkin bo'lgan maksimal gaz miqdori uch xil hajmli gazdan iborat: qatlamning qopqog'iga quyilgan gaz, neft qoldiqlarida erigan gaz, yutilgan, singdirilgan gazlar (4-rasm):

$$Q_{\xi \max} = Q_q + Q_e + Q_{yu}.$$



4-rasm. Foydalanib bo‘lingan neft qatlamining sxematik ko‘rinishi.


Bundan tashqari, to‘rtinchi bobda magistral quvurda tabiiy gazni transportirovka qilishning texnologik parametrlarini avtomatik monitoring qilish va noqat’iy boshqarish tizimi taklif etilgan. Texnik mohiyati bo‘yicha taklif qilingan tizimga eng yaqin bo‘lgan prototip sifatida klapan-rostlagichni avtomatik boshqarish usuli va tizimi tanlangan. U iste’molchilarga kerakli miqdorni yetkazib berish uchun va klapan-rostlagichdan o‘tgan gaz sarfi va sarfo‘lchagichidan olingan gaz sarfini formulalar yordamida hisoblab taqqoslashni hisobga olgan holda keyingi jihozlarning optimal rejimda ishlashini ta’minlaydigan kengaytirilgan diapazonda va kerakli qiymatlargacha rostlanishi mumkin.

Texnik natija tizimni soddalashtirish hamda ishonchliligi va xizmat muddatini oshirishdan iborat. Hozirgi vaqtda noqat’iy mantiq (fuzzy logic) qoidalaridan foydalanilgan holda rostlagichlarni qurishning yangi prinsipi keng tarqaldi.

Amaldagi gazni hisoblash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar: maksimal gaz sarfi Q va bosim P yuqori darajadagi interfeys orqali mikrokontrollerga uzatiladi. Jarayon parametrlarining o‘zgarishi noaniqligini hisobga olish uchun noqat’iy mantiqdan foydalanishga asoslangan usul taklif etiladi, bu esa boshqarish jarayonida vujudga keladigan turli xil noaniqliklarni hisobga olishga imkon beradi. Shu bilan birga, noqat’iy mantiqqa asoslangan PID-rostlagichli kontroller bilan boshqariluvchi, proporsional, integrallovchi va differensiallovchi zanjirlardagi kuchaytirish koeffitsiyentlari statik emas, ya’ni tizimning hozirgi vaqtdagi holatiga bog‘liq.

Noqat’iy mantiq yordamida magistral quvurdagi gaz parametrlarini avtomatik ravishda nazorat qilish va boshqarish uchun tizimning ishlash algoritmi ishlab chiqilgan.

Tavsiya etilgan rostlagichning samaradorligini klassik PID – rostlagichi bilan taqqoslash imitatsion model natijalarida keltirilgan (5-rasmga qarang).



5-rasm. Boshqarish tizimlaridagi jarayonlar: sariq-raqamli klassik PID- rostlagich bilan, havorang- noqat'iy rostlagich bilan.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, noqat'iy boshqarish tizimi keng diapazondagi g'alayonlarga kam sezuvchan va an'anaviy PID-rostlagichli boshqarish tizimiga nisbatan yaxshi sifat tavsiflariga ega ekan.

XULOSA

Dissertatsiyada avtomatik va intellektual boshqarish nazariyasini tizimli tahlil konsepsiyasi asosida tabiiy gazni transportirovka qilish jarayonining noqat'iy modellari hamda noaniqlik sharoitida ishlovchi gazni o'lchash uzeliidagi rejimni boshqarish algoritmlari ishlab chiqildi. Tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy natijalar olindi:

1. Ho'jaobod yer osti gaz omboridagi mavjud boshqaruv tizimlarini tahlil qilish natijasida yer osti qatlamlaridan qaytarib olingan tabiiy gazni transportirovka qilishning texnologik jarayonlarini boshqarish vazifalariga sun'iy intellekt usullarini qo'llanilishining maqsadga muvofiqligi asoslangan.

2. Jarayonning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi asosiy texnologik parametrlari gaz sarfi va bosimini funksional bog'liqliklari ishlab chiqilgan. Bu boshqarish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi

3. Yer osti gaz omborlarining texnologik jarayonlarini turli tasodifiylik va noaniqlik sharoitida noqat'iy mantiqqa asoslangan modeli ishlab chiqilgan bo'lib, u jarayonning xususiyatlarin to'liqroq ochib berish va u asosida boshqarish tizimini yaratish imkonini beradi.

4. Gazni transportirovka qilishda jarayonga ta'sir etuvchi faktorlarning qisman tasodifiy o'zgarishlarini hamda jarayonning dinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda noqat'iy rostlagich parametrlarini adaptiv sozlash algoritmi ishlab chiqilgan. Bu jarayonning ish rejimini o'zgartirishda rostlash parametrlarini rostlash vaqtini 8-10 sekundga kamaytirish imkonini beradi.

5. Ishlab chiqilgan adaptiv boshqarish algoritmlari va noqat'iy modellar asosida ma'lumotlar noaniqligi sharoitida gazni transportirovka qilishda texnologik cheklovlarni hisobga olgan holda noqat'iy rostlash tizimini sintezlash algoritmlari

ishlab chiqilgan. Bu boshqarishning samaradorligi, tezkorligi va aniqliligini ta'minlash imkonini beradi.

6. Gaz quvuri bosimi va sarfining keng diapazonda o'zgarishi sharoitida boshqarish jarayonini stabillash imkonini beruvchi noqat'iy mantiq asosida PID-rostlagichli noqat'iy boshqarish tizimi ishlab chiqilgan. Bu gaz quvuridagi gaz bosimi va sarfini barqarorlashtirish imkonini beradi.

7. Gazni transportirovka qilish jarayoni uchun noqat'iy boshqarish tizimi gaz quvuri zadviykasi klapanining harakatlanish tezligini yuqori aniqlikda boshqaruvchi noqat'iy rostlagich Xo'jaobod gazni yer ostida saqlash inshootida tatbiq etildi (O'ZTRANSGAZ AJning 2022-yil 14-noyabrdagi №01-29/5435-sonli guvohnomasi) va umumiy iqtisodiy samaradorlik 102 million so'mni tashkil etdi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.03.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

ШОМИРЗАЕВ БОБИР УРИНБАЕВИЧ

АВТОМАТИЗАЦИЯ МОНИТОРИНГА И
УПРАВЛЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ
СТАНЦИИ ПОДЗЕМНОГО ХРАНЕНИЯ ГАЗА

05.01.08 – Автоматизация и управление технологическими
процессами и производствами

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2022.3.PhD/Г713.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.tdtu.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet».

Научный руководитель: **Сиддиқов Исомиддин Ҳақимович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Исмаилов Мирхалил Агзамович**
доктор технических наук, профессор

Авазов Юсуф Шодиевич
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Бухарский инженерно-технологический институт**

Защита диссертации состоится « 7 » 12 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Г.03.02 при Ташкентском государственном техническом университете (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел: (99871) 246-46-00; факс: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрировано № 318 (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-14-70).

Автореферат диссертации разослан « 21 » 11 2023 года.
(реестр протокола рассылки № 21 от « 6 » 10 2023 года)



Н.Р. Юсупбеков
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор, академик

У.Ф. Мамиров
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., доцент

Х.З. Игамбердиев
Председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор, академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последнее время в мире в газовой промышленности, в частности, в процессе хранения и транспортировки газа в подземных газохранилищах интенсивно ведутся исследования по совершенствованию существующих технологий, повышению эффективности производства и мощности технологических агрегатов. Одной из наиболее актуальных задач в стремительном развитии этих и других областей является использование современных информационных технологий для управления реальными технологическими объектами, что позволяет повысить качество процессов управления и повысить эффективность при малых затратах энергии и ресурсов. В частности, одной из приоритетных задач является создание интеллектуальных систем управления на основе достижений современных информационных технологий, позволяющих учитывать различные неопределенности, возникающие при использовании подземных хранилищ газа.

В мире большое внимание уделяется решению теоретических задач создания системы управления технологическими процессами подземного хранения газа на основе методов интеллектуальных технологий в условиях информационной неопределенности и их практического применения в различных сферах. Использование интеллектуальных технологий на основе нечеткой логики при управлении технологическими процессами в условиях различной случайности и неопределенности обеспечивает решение широкого круга задач грубого и гибкого управления. Некоторый прогресс в этом направлении достигнут в ведущих странах мира, таких как США, Германия, Китай, Россия, Украина.

В настоящее время в Республике Узбекистан уделяется большое внимание направлениям автоматизации и управления технологическими процессами и производствами, в том числе созданию систем усовершенствованного управления, обеспечивающих энерго- и ресурсосбережение при автоматизации и управлении технологическими процессами хранения и транспортировки газа. В Стратегии развития нового Узбекистана, рассчитанной на 2022-2026 годы, намечен ряд задач, в том числе: «внедрение современных энергосберегающих технологий, оборудования и возобновляемых источников энергии ..., по снижению потерь в промышленных отраслях и повышению эффективности использования ресурсов, производство устройств возобновляемых источников энергии и финансирование проектов по повышению энергоэффективности»¹. Для решения этих задач одними из важных вопросов являются синтез и реализация высокоэффективных интеллектуальных систем управления технологическими процессами транспортировки газа.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

